

UDK 632.78.

ANOR MEVAHO'RIGA QO'YILGAN FEROMON TUTQICHNING BIOLOGIK SAMARADORLIGI

Dilorom Xidoyatova Mirshaxabovna, Madina Rasulova Shuxratovna, Shaxzod Sharopov Shuhrat o'g'li, O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya. Maqolada anor bog'larida uchraydigan karantin zararkunandasi hisoblangan anor mevaho'ri uchun qo'yilgan feromon tutqichining biologik samaradorligi natijalari yoritilgan.

Kalit so'zlar. Anor mevaho'ri, zararkunanda, zarari, hasharot, feromon tutqich, monitoring.

Аннотация. В статье рассматриваются результаты исследования биологической эффективности феромонной ловушки плодов граната, который считается карантинным вредителем, обитающим в гранатовых садах.

Ключевые слова. Плоды граната, вред, насекомое, феромонная ловушка, мониторинг.

Annotation. The article discusses the results of a study of the biological effectiveness of the pheromone trap of pomegranate fruits, which is considered a quarantine pest living in pomegranate gardens.

Keywords. Pomegranate fruits, harm, insect, pheromone, trap, monitoring.

Kirish. O'zbekistonining turli iqlim sharoitlarida anorning asosiy zararkunandalariga qarshi kurash choralarini takomillashtirish, hosildorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Anor zararkunandalari bo'yicha yuzdan ortiq ilmiy manbalariga tayangan holda, ularning tadqiqot ishlarini davrlashtirishga harakat qilindi. Anor o'simligi asosan, qalamchasidan ekib ko'paytiriladi. O'zbekistonda anorning quyidagi navlari etishtiriladi: Qizil anor, Qozoqi anor, Koyim anori, Oq dona, Achchiq dona, Bedana, Ulfi, Boda mursal va Pushti Guloysha navlari. Anorni zararli hasharotlardan anor mevaxo'ri, anor biti, komstok qurti zararlaydi. O'zbekistonda anor zararkunandalari haqidagi bir qator ma'lumotlarda, asosiy etibor ularga qarshi kurash chora-tadbirlariga qaratilgan bo'lsa,

boshqalarida esa, anor qurtining biologiyasi va ekologik xususiyatlari haqida ham ma'lumotlar keltirilgan [1].

Anor mevaxo'ri (*Yeuzophera punicaella* Mooze) hasharotlarning kapalaklar (*Lepidoptera*) turkumiga barg o'rovchilar (*Tortricidae*) oilasiga mansub bo'lib, tipikkarpofag (mevaxo'r barg o'rovchilar) hamda monofag bo'lib hisoblanadi (Yaxontov. 1963: Xo'jaev. 2019). U asosan qurt (qisman g'umbak) shaklida erga to'kilgan mevalar va boshqa pana joylarda qishlab chiqadi. Bahorda asosan aprel oyida g'umbaklashib mayning boshlarida kapalaklar uchib chiqa boshlaydi. Har bir urg'ochi zot o'z umrida hammasi bo'lib 80-120 ta tuxumini gullab bo'lgan anorning asosan gulkosasiga 1 tadan 5 tagacha qo'yadi. Tuxumdan ochib chiqqan qurtlar gulkosa orqali anor ichiga o'tadi va meva donalarini shikastlab oziqlana boshlaydi. Qurt 6 yoshni boshdan kechirib, yana gulkosa atrofiga qaytib chiqadi va yumshoq pilla o'rab ichida g'umbaklashadi. 7-8 kundan keyin undan kapalak uchib chiqib naslni davom ettiradi. Hammasi bo'lib bir avlodni o'tishga 32 kundan 21 kungacha vaqt talab etadi. (Mirzaeva, 2023).

“ECO CENTER MD” MChJ, Moldova Respublikasi tomonidan taklif etilgan “Euzophera Protect” feromon tutqichni biologik samaradorligini aniqlashda, Toshkent viloyati Qibray tumani “Xaydarov Murod” fermer xo'jaligida joylashgan anor bog'ida olib borildi.

Tajribada qizil anor navidan foydalanildi. Nazoratning boshlanishi 05-may kuni qo'yildi va 05-iyun kuni tugatildi. Tajribalar uch qaytarilishda amalga oshirildi.



Anor bog'iga ilingan feromon tutqichlar.

Tajriba (variant) - “Yeuzophera Protect” feromon tutqichi (“ECO CENTER MD” MChJ), monitoring qilishda gektarga 2-3 donadan qo'yildi.

Andoza (variant) - «Granat Ognevka» («BNIKR” Rossia) 1 ga 3 dona.

“Euzophera Protect” feromon tutqichi anor mevaho‘ri o‘ziga jalb qilish (tutib olish xususiyati)

Toshkent viloyati sharoitida dala kuzatuvlari, 2023yil.

Variantlar	Takarlanish	1 ta feromon tutqichga tushgan kapalaklar soni, dona							
		05.05 - 08.05	09.05 - 12.05	13.05 5- 16.05	17.05 -20- 05	21.05 - 24.05	25.05 5- 28.05	29.05 5- 01.06	02.06 - 05.06
“Euzophera Protect” “ECO CENTER MD” MChJ Moldava	1	3	10	16	20	24	28	30	31
	2	0	0	0	0	0	0	2	3
	3	0	0	0	0	0	0	2	4
Jami		3	10	16	20	24	28	34	38
O‘rtacha 1 ta f/t., tak.		3	10	16	20	24	28	11,3	12,6
«Granat Ogniyevka» (BNIKR, Rossia) (Andoza)	1	0	0	0	0	0	0	0	0
	2	0	0	0	0	0	0	0	0
	3	0	0	0	0	0	0	0	0
Jami		0	0	0	0	0	0	0	0
O‘rtacha 1 ta f/t., tak.		0	0	0	0	0	0	0	0

Tadqiqot natijalari. Euzophera Protect feromon tutqichi 1ga 3 dona 2023 yil 05-may kuni ilindi va 06-iyunda tugatildi. Olib borilgan tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, 05-maydan, 05-iyungacha 38 dona anor mevaho‘ri kapalaklari tushganligi aniqlandi. (jadval)

Hulosa; “ESO CENTER MD” MChJ, Moldova Respublikasi tomonidan taq‘dim etilgan “Euzophera Protect” feromon tutqichini anor mevaho‘ri zararkunandasini moninoring qilishda gektariga 2-3 dona qo‘llash tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ABIYOTLAR

1. Эргашев И.К., Муродов Б.Е., Сулаймонов О.А., Болтаев Б.А., Анарбоев А.Р.. Ўсимликлар клиникасида боғ, токзор ва дала экинларининг зараркунанда, касалликларни аниқлаш ҳамда уларга қарши курашиш усуллари. Тошкент. “Наврўз” 2018.- 58 б.

2. Мирзаева С.А., Худайбердиева М. Анор мевахўрига қарши уйғунлашган кураш тизими. - Илмий мақолалар тўплами. - Тошкент, 2009. - 228-232 б.

3. Мухаммадалиев Ш, Сулаймонов Б.А., Рашидов М.И., Экинлар зарарли организмлари ривожланиши ва тарқалишининг башорати. "Ўқитувчи" Т 2002. 1436.

4. Хўжаев Ш.Т. Умумий ва қишлоқ хўжалик энтомологияси ҳамда уйғунлашган ҳимоя қилиш тизимининг асослари (ИВ нашр). - Тошкент: Янги нашр. 2019. - 375 б.

5. Ходжаев Ш.Т., Сагдуллаев А.У., Исаев О.Б., Юсупова М.Н. Проблемы защиты растений в Узбекистане //Ж. Защита и карантин растений, Москва. – 2011. - №8. – С. 23-24.

6. Isomiddinov I.T., Hakimov A.X., Babaxanova M., Mambetnazarov A.B., Rasulova M.Sh., Mamadaliev Sh.P. Feromon tutqichlardan foydalanish bo'yicha tavsiyanoma. 2024 y. 19 bet.